

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



**Jizzax politexnika instituti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor, t.f.d.,
prof. J.N. Abdunazarov**

2025 yil

**05.06.02 – “To’qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish” ixtisosligi bo’yicha tayanch doktoranturaga
doktorantlik (kichik ilmiy xodim-izlanuvchilik)ka talabgorlar uchun kirish
imtixonini topshirish**

DASTURI

Jizzax – 2025

**05.06.02 – “To’qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish” ixtisosligi bo’yicha tayanch doktoranturaga doktorantlik (kichik
ilmiy xodim-izlanuvchilik)ka talabgorlar uchun kirish imtixonini o’tkazish uchun
ishchi guruh tarkibi:**

A.Usmankulov	“Tabiiy tola va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası professori, t.f.d., professor - ishchi guruh raisi.
J.Abdunazarov	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, t.f.d., professor – ishchi guruh raisi o’rinbosari.
Sh.Musayev	Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i, t.f.f.d., professor – ishchi guruh raisi o’rinbosari.
I.Abbazov	“Tabiiy tola va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası professori, t.f.d., dotsent - ishchi guruh a’zosi.
F.Egamberdiyev	“Tabiiy tola va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası mudiri, t.f.d., dotsent- ishchi guruh a’zosi.
B.Doniyorov	“To’qimachilik mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası mudiri, t.f.f.d., dotsent- ishchi guruh a’zosi.
D.E.Kazakova	“To’qimachilik mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent- ishchi guruh a’zosi.
X.X.Yo’ldoshev	“To’qimachilik mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent- ishchi guruh a’zosi.
D.B.Shamiyev	“To’qimachilik mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent- ishchi guruh a’zosi.
X.Yu.Ulug’murodov	“Tabiiy tola va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent - ishchi guruh a’zosi.
O’.A.Norboyev	“Tabiiy tola va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent - ishchi guruh a’zosi.
A.M.Shodmonqulov	“To’qimachilik mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent- ishchi guruh a’zosi.
M.N.Rajabova	“Tabiiy tola va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d., dotsent - ishchi guruh a’zosi.

Kirish

Ma'lumki mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbiri to'g'risida"gi PQ-2909-son qarorida malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasida "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida. Respublika Prezidentining qator Farmon va Qarorlari, jumladan 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risida 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli, "Engil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son qarorlari qabul qilindiki, mazkur **05.06.02– "To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish"** ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga talabgorlar uchun kirish imtixonini topshirish dasturi yuqorida keltirilgan Farmon va Qarorlardan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirishni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi Qarorlarda Respublikamizda mahalliy xom ashyolar asosida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va milliy brendlar asosida eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni ilmiy ishlanmalarga asoslangan innovatsiyalar asosida qayta jihozlash, xoriждан keltirilgan zamonaviy texnikadan samarali foydalanishga qaratilgan to'qimachilik sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirish hamda yuqoridagi ishlarni amalga oshirish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, maqsadli kompleks dasturlar, investitsiya dasturlari, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash dasturlari bajarilishi yakunlari hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustivor vazifalari amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlarida mahalliy tabiiy tolalarni resurstejamkor texnologiyalar asosida qayta ishlash hajmini oshirish, tayyor to'qimachilik mato va buyumlarini ishlab chiqarish, sanoat korxonalariga ilmiy tadqiqot natijalarini keng joriy etish va Milliy iqtisodiyotda to'qimachilik sanoati ulushini ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib, dunyoda bo'layotgan global masalalardan biri qimmatbaho tabiiy xom ashyo resurslarini tejash, yuqori iste'mol (gigienik nuqtai nazardan) xossasiga ega kiyim-kechak va maishiy buyumlardan foydalanish masalasidir. Ushbu masalaning bir echimi tabiiy tolalardan samarali foydalanish orqali yuqlori higienik va estetik talablarga javob beradigan matolar va buyumlar ishlab chiqarishni kengaytirishdir.

Dunyo aholisining kun sayin o'sib borishi natijasida insoniyatning birlamchi ehtiyoji bo'lgan oziq-ovqat va kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyoj yanada oshmoqda.

Dunyo ilm-fanining rivojlanishi natijasida hozirgi kunda tabiiy tolalarning ayrim xususiyatlarini to'ldiruvchi, shuningdek, yuqori pishqlik va turli xossalarga ega bo'lgan nanotexnologiyalar asosida tayyorlangan "aqlli tolalar" va ulardan "aqlli buyumlar" ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda ko'plab sanoat korxonalari kimyoviy tolalar ishlab chiqarish va ularni qayta ishlashga asoslangan texnologiyalar bilan shug'ullanmoqda. Tabiiy tolalarni etishtirish va undan raqobatbardosh to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ayrim kam sonli mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham amalga oshirilmoqda. SHuning uchun tabiiy toladan tayyor to'qimachilik mato va buyumlari ishlab chiqarib eksport qiluvchi dunyo mamlakatlari orasida "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" belgisi ostida raqobatbardosh milliy brendlarni yaratish, mahalliy va jahon bozorida mustahkam o'rinni egallash uchun ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish va ularni tadbqiq qilishga erishish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

QO'SHIMChA SAVOLLAR

Dissertasiya mavzusining dolzarbligini qanday asoslaysiz?

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari.

Dissertasiya mavzusining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ishda informasiya ishonchliligini oshirish muammosini yechish uchun taklif qilingan yangi yondashuv va prinsiplar nimadan iborat?

IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONLARI

Jizzax politexnika instituti rektori buyrug'i bilan tuzilgan komissiya tayanch doktoranturaga kirish imtixonlarini o'tkazish jarayonini muntazam ravishda kuzatib boradi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda tayanch doktoranturaga kirish imtixoni natijalari bekor qilinishi mumkin.

Bunday xollarda kirish imtixoni qayta o'tkaziladi.

Talabgorning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish reyting tizimiga asosan, talabgorni fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Talabgorning imtixonida o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimida baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ball	Baxo	Talabgorning bilim darajasi
86-100	A'lo	Ijodiy fikrlash; mustaqil mulohaza yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; moxiyatini tushuntirish; tushunchalarni bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish; xulosa va qaror qabul qilish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mulohaza qilish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish moxiyatini tushuntirish; tushunchalarni bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
56-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish; tushunchalarni bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
0-55	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, bilmaslik.

Imtihon fanlari bo'yicha saralash bali 56 ballni tashkil etadi. Talabgorning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi keyingi imtihonga ko'yilmasligiga sabab buladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Farmoni, 08.10.2019 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risida PQ-3151-sonli Qarori 27.07.2017 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Engil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4453-sonli Qarori. 16.09.2019 y.
6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., «O'zbekiston» 2017y., 488 b.
7. F.Omonov Tahriri ostida "Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik" T: "Voriz-nashriyoti" – 2008.
8. E.Zikriyoev taxriri ostida Paxtani dastlabki qayta ishlash. T: "Mehnat" 2002 9. A.Parpiev va boshqalar "Paxta xom ashyosini quritish". T: CHo'lpon – 2009
10. M.Xodjiev, A.Salimov "Tola sifatini aniqlash". "Turon Iqbol". T: 2006
11. A.Usmankulov, A.Salisov, I.Abbazov "Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash". Jizzax 2020 y.
12. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., «O'zbekiston» 2016 y., 56 b.
13. Alimboev E.SH. To'qima tuzilishi nazariyasi. Darslik –T.: Alohach, 2006.- 231 bet.
14. Raximxodjaev S.S., Kadirova D.N. Stroenie tkani. Uchebnik – T.: 2018
15. Мартынова А.А. Stroenie i proektirovanie tkaney: Uchebnik dlya studentov VUZov/ - M.:Izd-vo MGTU, 1999, - 434 s.
16. Baymuratov B.X., Daminov A.D. To'quvchilik texnologiyasi. "Fan va texnologiya" nashr. Toshkent. 2016 y., 316 byu
17. S.Adanur Handbook of weaving. Auburn Univercity. USA., 2000., 440pp.

05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” (Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi) ixtisosligi bo‘yicha savollari

1. Paxtani tayyorlash va saqlash. Paxtani saqlashga qo‘yiladigan talablar.
2. Paxtani g‘aramlash tartibi. Ishlatiladigan texnologik uskunalar. Paxtani g‘aramga uzatish va shibbalash.
3. Paxtani saqlash, tunnel ochish, paxta sifati nazoratini tashkil etish.
4. Paxtani saqlashda uni o‘z-o‘zidan qizishi, paxta qizishiga ta’sir etuvchi omillar. Paxta qizishini bartaraf etish usullari.
5. Iflos aralashmalarining klassifikatsiyasi. Chigitli paxtani yirik va mayda iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi va uskunalari.
6. Paxtani quritish jarayonida issiqlik sarfi, xom ashyo tarkibidagi namlikning harakati va jarayonga ta’sir etuvchi asosiy omillar.
7. Paxtani mayda va yirik iflos aralashmalardan tozalash nazariyasi.
8. Arrali jinlash texnologik jarayoni va xom ashyo valigining hosil bo‘lishi, tolasi to‘liq ajratib olingan chigitlarni ishchi kameradan chiqib ketishi va arratishlaridan tolani ajratib olish texnologik jarayonlari hamda uning uskunalari.
9. Tola tozalagichlar ishchi qismlari orasidagi munosabatlar, ularni tolaning sifat ko‘rsatkichlariga va tozalash samaradorligiga ta’siri.
10. Atmosfera havosini changsizlantirish usullari, atrof muhitni va ishlab chiqarish binolarini changsizlantirish muammolari hamda chang tutkichlarni turlari.
11. Paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasida ilmiy va texnik muammolarni yechilishi, asosiy rivojlanish istiqbollari.
12. Texnologik mashinalarni ekspluatatsiya qilish uchun ehtiyot qismlar, kolosniklar va arralar tayyorlash texnologiyasi hamda uskunalari.
13. Xitoyning paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasi hamda mahalliy texnika va texnologiyalardan farqini keltiring.
14. Paxta tozalash mashinasining ishlash tartibi, asosiy ishchi qismlari va ularni jarayonga ta’sirini o‘rganish.
15. Linterlash mashinasining ishlash tartibi, asosiy ishchi qismlari va ularni jarayonga ta’sirini keltiring.
16. Arrali jin mashinasini asosiy ishchi qismlarini texnologik jarayonga ta’siri va ish unumdorligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari va sifatini boshqarish.
17. Paxta mayda va yirik iflosliklardan tozalash mashinalarining moduli, tozalash jarayonining elementlari va nazariyasi.
18. Tola namligini toylash texnologik jarayoniga ta’siri va toylarni bog‘lash jarayonida kuchlanishni lentalarga taqsimlanish xarakteri va bog‘lanish ishonchliligiga ta’siri.
19. Tolali chiqindilarni turlari, ularni qayta ishlash texnologik jarayoni va yangi texnologiyalari hamda ularni texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari.
20. G‘o‘za agrotexnikasi, terib olish va paxtani qabul qilish usullari.
21. Paxtachilikda zamonaviy agrotexnologiyalar.
22. Paxtani arrali jinlash jarayonida ishchi kameradagi xom ashyoning harakati va tolani arratishlaridan ajratib olish jarayoni.

23. AQShning paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasi hamda mahalliy texnika va texnologiyalardan farqini keltiring.
24. Toylash qurilmalari, toylash texnologik jarayoni, toylash zichligi va standart talablarga javob beradigan toylar olish uchun zarur bo'lgan bosim?
25. Jinlash mashinasining ishlash tartibi, asosiy ishchi qismlari va ularni jarayonga ta'siri?
26. Chigitli paxtani mayda va yirik iflos aralashmalardan tozalash nazariyasi.
27. Arrali jinlash texnologik jarayoni va xom ashyo valigining hosil bo'lishi, tolasi to'liq ajratib olingan chigitlarni ishchi kamerasidan chiqib ketishi va arratishlaridan tolani ajratib olish texnologik jarayonlari hamda uning uskunalari.
28. Linterlash mashinasining ishlash tartibi, asosiy ishchi qismlari va ularni jarayonga ta'sirini o'rganish.
29. Tolali mahsulotlarni toylash texnologik jarayoning tahlili, toylash zichligi va standart talablarga javob beradigan toylar olish uchun zarur bo'lgan texnologik talablar?
30. Presslash qurilmalari, toylash texnologik jarayoni, toylash zichligi va standart talablarga javob beradigan toylar olish uchun zarur bo'lgan bosim?
31. Urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasi.
32. Chigitni tozalash texnologik jarayonini momiq sifat ko'rsatkichlariga ta'siri, momiqni sinflanishi hamda navlari.
33. Tola, chigit va tolali chiqindilarni tashish vositalari?
34. Jinlash jarayonida paxtaning namligi va iflosligini jarayonga va tolaning sifatiga ta'siri.
35. Paxta tolasini namlash qurilmalarining tuzilishi, uskunalari va ularning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari?
36. Paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasining tahlili, asosiy rivojlanish istiqbollari, ilmiy muammolari.
37. Valikli jinlash jarayoni nazariyasi. Ishchi valikningilashtirish qobiliyati hamda ularni hisobi?
38. Respublika paxta tozalash sanoati korxonalarining rivojlanish tarixi.
39. Quritgichlar klassifikatsiyasi, paxta komponentlarning quritish harorati, paxtani quritish kinetikasining hisoblash usullari.
40. Quritgichlarning konstruksiyalari va ishlash prinsiplari hamda texnik tavsiflari.
41. Arrali jin mashinasini asosiy ishchi qismlarini texnologik jarayonga ta'siri va ish unumdorligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari, ularni boshqarish.
42. Yangi ishlab chiqarilayotgan press qurilmalarining afzalliklari, uni mahalliy texnologiyalar bilan mosligi.
43. Paxtani quritish va iflos aralashmalardan tozalash texnologik jarayonlarining nazariy va ilmiy asoslari?
44. Paxtani qabul qilib oluvchi va uzatib beruvchi mexanizatsiya vositalari, ularni turlari hamda texnik tavsiflari.
45. Chigitni tozalash texnologik jarayonini momiqning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri. Momiqni sinflanishi hamda navlari.
46. Tolali mahsulotlarni toylash jarayonida tola namligining ahamiyati va tola tarkibidagi nuqsonlarning tola sifatiga ta'siri.

47. AQShning paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasi hamda mahalliy texnika va texnologiyalardan farqini keltiring.
48. Paxtani arrali jinlash jarayonida ishchi kameradagi xom ashyoning harakati va tolani arra tishlaridan ajratib olish jarayoni.
49. Paxtani quritish ob'ekti sifatida asosiy xarakteristikalarini keltiring.
50. Quritish barabanini loyihalashda qo'yiladigan asosiy texnologik talablarni aytib bering.

05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” (yigirish texnologiyasi) ixtisosligi bo‘yicha savollari

1. Paxta tolasining yigiruvchanlik qobilyatini aniqlash usullari?
2. Qayta o‘rash jarayonida ip tarangligi va iplarni tugunsiz o‘rashni izoxlang?
3. Qayta tarash mashinasi unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar texnika yangiliklarini izoxlang?
4. CHo‘zish nazariyasi va cho‘zishdagi notekislikni kamaytirish tadbirlarini izohlang?
5. Qayta tarashda tolalarni saralanib ajralishini izohlang?
6. Tolali mahsulotlarni tarash jarayoni.
7. Mahsulotni qo‘shib cho‘zishda notekislikning o‘zgarishi.
8. Yigirish mahsulotlari notekisligining turlari, ularni aniqlash formulalarining tahlili?
9. Mahsulotning strukturaviy notekisligi va uning kelib chiqish sabablari.
10. Titish tozalash agregatlari va patok tizimlari.
11. Tolalarni aralashtirish usullari va mashinalari.
12. Yigirish usullari, klassifikatsiyasi.
13. CSP va R_{km} ko‘rsatkichi va uning qo‘llanilishi.
14. Tola xossalari bilan ip xossalarining bog‘liqligi?
15. Maxsulotni qayta tarashga tayyorlash uskunalarini izohlang?
16. CHo‘zish jarayonida tolalar harakatining turlari?
17. Ip xossalari, tola xossalari va pishitilganlik orasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
18. SHlyapkali va valikli tarash mashinalarida tarash jarayonining tahlili?
19. CHo‘zish jarayoni tahlili?
20. Urchuqsiz yigirish usullarida olinadigan ipning strukturasi va xossalari?
21. Paxta tolasining uzunligi va uni baholash mezonlari?
22. HVI tizimida paxta tolasining xossalarini baholash?
23. Qayta tarash samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar?
24. Yigirish mashinasida o‘rash jarayoni va uning tahlili?

25. Pnevmmomexanik yigirish mashinalar va ularning asosiy ishchi organlari?
26. Paxta tolasining xossalari baholash usullari?
27. Tarash texnikasi yangiliklari, tarash samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar?
28. Piliklash mashinasida o'rash jarayoni va uning tahlili?
29. To'qimachilik sanoatining rivojlanish bosqichlari?
30. Pishitilgan iplarni ishlab chiqarish texnologiyalari va pishitilgan ip turlari?
31. Qo'shib o'rash mashinalari yangiliklari?
32. Tozalashdagi yangiliklar. Aerodinamik tozalash mashinalari?
33. Yigirish korxonalarida xom ashyoni ishlatish qanday amalga oshiriladi? "LOT" haqida ma'lumot bering?
34. Titilganlik darajasi nimani bildiradi va qanday amalga oshiriladi?
35. Tarash mashinalari turlari va ularning xususiyatlari. SHlyapkali tarash mashinasining tuzilishi va ishlashi?
36. Qo'shish jarayonining maqsadi va mohiyati. Pitalash mashinalarining vazifalari nimalardan iborat? Pitalash mashinasining unumdorligi.
37. Paxta tolasining klassifikatsiyasi. Yigirish xom ashyosiga qo'yilgan talablar
38. Tolali mahsulotlarni titishda qanday usullar va vositalar ishlatiladi?
39. Mahsulotni qayta tarashga tayyorlashning qanday usullari mavjud?
40. Pishitish jarayonining maqsadi va mohiyati nimalardan iborat? Pishitish darajasi. Piliklash mashinasining unumdorligi qanday aniqlanadi?
41. Ip sifatini baholashda CSP va R_{km} ko'rsatkichlarini aniqlang?
42. Qabul barabani uzeli vazifalari nimalardan iborat? Sensofeet va Webfeed tizimlari qanday ishchi organlardan tashkil topgan va ular qanday afzalliklarga ega?
43. Tarash jarayonining maqsadi, mohiyati. Tarash mashinasining vazifasi nimalardan iborat?
44. CHangli havoni tozalash tizimlarining qanday turlari mavjud?
45. Qo'shish jarayonining maqsadi va mohiyati. Pitalash mashinalarining vazifalari nimalardan iborat? Pitalash mashinasining unumdorligi.
46. Iplarni pishitishdan maqsad nimadan iborat va pishitishning qanday vazifalarini bilasiz?
47. Iplarni pishitishning mohiyati nimadan iborat va pishitilgan iplar qanday guruhlarga bo'linadi?
48. Iplarga qanday buramlar beriladi va ularning yo'nalish belgisini tushuntirib bering. Iplarni qanday pishitish usullarini bilasiz?
49. Pishitilgan iplarining chiziqli zichligi va yakka ipning chiziqli zichligi orasida qanday farq bor?

50. Iplarni pishitishda ularning qisqarishi deganda nimani tushunasiz?

05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” (to‘quvchilik texnologiyasi) ixtisosligi bo‘yicha savollari

1. Zamonaviy to‘quv dastgohlarida o‘rnatilgan tanda rostlagichlarining qiyosiy tahlili. Tanda iplarining tarangligini rostlash usullari?
2. SHoyi gazlamalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari. Unga qo‘yiladigan talablar. SHoyi gazlamalarni ishlab chiqarishni o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanilishi?
3. To‘qima milk turlari va ularni shakllanish nazariy asoslari?
4. Xom ashyoni to‘quvchilikka tayyorlash texnologik jarayonlari va ularni vazifalari?
5. To‘quv dastgoxida to‘qimachilik matolarini xosil qilish texnologik jarayonlari, vazifasi?
6. Qayta o‘rash jarayoni maqsadi va sifatli o‘rama olish sharti?
7. Djinsi to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari. Unga qo‘yiladigan talablar. Djinsi to‘qimalarni ishlab chiqarishni o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanilishi?
8. Zamonaviy mato rostlagichlari. Ularda to‘qimaning arqoq bo‘yicha zichligini o‘rnatish usullari?
9. To‘quv dastgohlarini ishlab chiqaruvchi xorijiy firmalar?
10. Xomuza hosil qilish. Elektron xomuza hosil qiluvchi shoda ko‘taruvchi shodalar?
11. Arqoq ipini xomuzaga tashlash usullari?
12. Ip gazlamalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari. Unga qo‘yiladigan talablar. Ip gazlamalarni ishlab chiqarishni o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanilishi.
13. To‘qimani to‘quv dastgohida shakllanish jarayonlari. To‘quv dastgohlarining tasnifi. To‘qima hosil qilishning texnologik jarayonlari nazariyasi?
14. Eshilmagan paxta tolali to‘qimachilik matolarini ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlar ketma-ketligini tanlang va asoslang?
15. Dastgohda matolarini hosil qilish texnologik jarayonlari va asosiy mexanizmlari vazifasi?
16. Arqoq ipi to‘qima chetiga jipslashtirish mexanizmlari va batan mexanizmlari turlari?
17. To‘qimani tortish va o‘rash mexanizmlari vazifasi. Elektron to‘qima Rostlagichlari?
18. Tanda ipini uzatish va taranglikni rostlash mexanizmlari. Elektron

tanda rostlagichlari?

19. Arqoq ipini jipslashtirish mexanizmlari vazifasi, turlari?

20. Xomuza hosil qilish mexanizmlari, vazifasi va klassifikatsiyasi?

21. Iplarni tandalash maqsadi, tandalash usullari va qo'llanilish ko'lami.

Tandalash jarayonining texnologik omillari.

22. Tanda iplarini oxorlash maqsadi. Oxorlash jihozlari. Oxorlash jarayonining texnologik omillari. Oxor tarkibi?

23. Iplarni o'tqazish va bog'lash jarayoni maqsad va mohiyati. Qo'llanilish ko'lami?

24. To'quv dastgohidagi asosiy mexanizmlar va ularning vazifasi?

25. Bosh o'rilishlar. Ularning to'liq taxtlash dasturini tuzing?

26. To'qima o'rilishining to'liq taxtlash dasturi nima, uni tashkil etuvchi elementlarni ta'riflang?

27. Hosila o'rilishlar guruhi. Ularni to'liq taxtlash dasturini tuzish shartlari. Polotno o'rilishlar guruhi. Polotno hosilalari o'rilishining to'liq taxtlash dasturini tuzing?

28. Atlas o'rilishlar guruhi. Atlas o'rilishli to'qimalarni to'liq taxtlash dasturini tuzing?

29. Sarja hosila o'rilishlari va ularni to'liq taxtlash dasturini tuzing?

30. Atlas hosila o'rilishlari va uning hosilalarini to'liq taxtlash dasturini tuzing?

31. To'quv o'rilishlari, ularni tuzish shartlari, taxtlash dasturlari va ishlab chiqarish nazariyasi?

32. To'qima tuzilishi, uni aniqlovchi omillar. To'qima tuzilishini ta'riflovchi asosiy kompleks ko'rsatkichlar tanda va arqoq iplarining qisqarishi.

33. To'quv o'rilishlarini taxtlash va ishlab chiqarish dasturi, uning elementlari va ularni aniqlash.

34. O'zbeksitonda to'qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyasi. Eshilgan paxta ipidan to'qimachilik matolarini ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlar ketma-ketligini tanlang va asoslang?

35. To'quv dastgohlari klassifikatsiyasi. To'quv dastgohlarining assortimentlik imkoniyatlarini ta'minlovchi omillar?

36. To'qimachilik matolari turlari, ularni o'ziga xos xususiyatlari?

37. Ipak ipidan mato ishlab chiqarish texnologik ketma-ketligini tanlang va asoslang. Ipak matolarini ishlab chiqarish omillarini (ko'rsatkichlarini) keltiring va asoslang. Ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish chora-tadbirlari?

38. Hosila o'rilishlar, ularni o'ziga xos xususiyatlari. Ularni to'liq taxtlash dasturini tuzing?

39. Mayda naqshli o'rilishlar. Mayda naqshli o'rilishlarini tuzish shartlari, ularni o'ziga xos xususiyatlari va o'rilish turlari?
40. Aralash o'rilishlar. Aralash o'rilishlarini tuzish shartlari, ularni o'ziga xos xususiyatlari va o'rilish turlari.
41. Murakkab to'qimalar o'rilishlari. Bir yarim qatlamli to'qimalar o'rilishi va ularni to'liq taxtlash dasturni tuzing?
42. Murakkab to'qimalar o'rilishlari. Ikki qatlamli to'qimalar o'rilishi va ularni to'liq taxtlash dasturni tuzing?
43. Qatlamlari milkda bog'langan ikki qatlamli to'qimalar o'rilishi. Ular to'lik taxtlash dasturini tuzing?
44. Ikki va ko'p enli to'qimalar va ularni to'liq taxtlash dasturni tuzing?
45. Murakkab to'qimalar o'rilishlari. Arqoq tukli to'qimalar?
46. Murakkab to'qimalar o'rilishlari. Tanda tukli to'qimalar?
47. To'qimani sifati va uni nazorat qilish. Mato ishlab chiqarishda iplarni uzilishini kamaytirish chora-tadbirlari?
48. Ipak matolarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini tanlang va asoslang?
49. Ishlab chiqarishda jihozlarni ish unumdorligini oshirish chora-tadbirlari?
50. To'qimani tortish va o'rash mexanizmlarini nosozligidan hosil bo'ladigan to'qima nuqsonlari?

05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” (trikotaj texnologiyasi) ixtisosligi bo‘yicha savollari

1. Trikotaj ishlab chiqarish sohasidagi yangi texnika va texnologiyalar yo‘nalishlari?
2. Trikotaj to‘qimasining tuzilishlari, uning parametrlarini aniqlovchi omillar?
3. Tugallash operatsiyasi bajarilishida mashinaning unumdorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar?
4. Trikotajda naqsh samarasini hosil qilish usullari?
5. Trikotaj mahsulotlarining ishlab chiqarish mavjud usullariga izoh bering?
6. Igna tugallash operatsiyasini bajarayotganida bosib o‘tadigan masofani asosiy mohiyati va mashinaning ish unumdorligiga ta’siri?
7. Ipni ignalarga qo‘yish burchagi va uning asosiy mohiyati?
8. Ignalar turlari va tuzilishini tahlili?
9. Ipni ignaga qo‘yishda “kaychi nuqtasi” tushunchasi va mohiyati?
10. Bosh va xosilali ikki kavatli trikotaj tukimalarini olishning uziga xosligi.
11. Trikotaj ishlab chiqarishdagi chiqindilarni kamaytirish usullari?
12. Egish operatsiyasi bajarilishida ip tarangligini nazariy asoslari?
13. Halqa hosil qilish jarayonida ip siqilmasdan egish operatsiyasini mohiyati?
14. Trikotaj to‘qimalarining klassifikatsiyasini tahlili?
15. Halqa hosil qilish jarayonida siqish operatsiyasini tahlili?
16. Halqa hosil qilish jarayonida surish operatsiyasini izohlang?
17. Trikotaj mashinalarida kiritish operatsiyasini tahlili?
18. Halqa hosil qilish jarayonida birlashtirish operatsiyasini izohlang?
19. Halqa hosil qilish jarayonidagi tashlash operatsiyasini izohlang?
20. Ornament tushunchasi, misollar bilan izohlang?
21. YArim muntazam usulda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda chiqindilar miqdorini kamayishini asosiy mohiyati?
22. Bo‘ylamasiga tutashgan (split) trikotajning turlari va ularni olish texnologiyasi?
23. Naqsh samarasi, kompozitsiya va uning mohiyati?
24. Trikotaj mahsulotlari mumtazam usulda ishlab chiqarilganda chiqindilar kamayishini asosiy mohiyati?
25. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda bichish usulining afzalliklari va kamchiliklarini asosiy mohiyati?
26. Naqsh hosil qilishda jakkard to‘qimasining naqsh samarasi va olish usuli?
27. Ko‘ndalangiga tutashgan (ringel) trikotaj, uning turlari va to‘qilishini usullari?
28. Vint naqsh samarali trikotaj va uni olish tenologiyasi?
29. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning yarim muntazam usulning afzalliklari va kamchiliklariga izoh bering?
30. Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish usulini mashinaning unumdorligiga ta’sirini nazariy asoslari?

31. Trikotaj mashinalarida kiritish operatsiyasini nazariy asoslari?
32. Ajurli naqsh samarali trikotaj va uni olish texnologiyasi?
33. Almashinuvchan yopchiqli trikotaj va uni olish usullarini izohlang?
34. Ishlab chiqarishda xom ashyodan oqilona foydalanish omillariga izoh bering
35. Halqa hosil qilish jarayonida shakllantirish operatsiyasini tahlili?
36. Trikotaj ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari?
37. Press to'qimalari asosida aralash naqshli trikotaj tuzilishlarini qo'llab, naqshli trikotaj bo'yicha xom ashyo tejash texnologiyalarini yaratish?
38. Trikotajni loyihalash ko'rsatkichlari?
39. Trikotaj ishlab chiqarish texnologik jarayonining zamonaviy yo'nalishlari?
40. To'qimalarning xajm zichligini kamaytirish usullari va uning xom ashyo sarfiga ta'siri?
41. YAssi fang mashinalarida mahsulotni to'qishda dastlabki qatorni hosil qilish usullari?
42. Ichki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari va jarayonlari?
43. To'quv mashinalari klassi va tasnifi?
44. Mahsulot biriligiga ketadigan xom ashyo sarfini hisoblash usullari?
45. Ustki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari va jarayonlari?
46. Naqsh hosil qilishda yopqichli trikotaj to'qimasining naqsh samarasi?
47. Halqa hosil qilish usullari va ularning o'ziga xosliklari?
48. Issiqlik saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotaj to'qima turlari va ularni olishning o'ziga xosligi.
49. Ishlab chiqariladigan trikotaj to'qimalar (mahsulot) sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar.
50. Trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirish usullari.